

INTERFERENSIYA JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI NOLISONIY OMILLAR TAHLILI

Istoda Rasulova

*Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti
o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti
e-mail: istoda.87@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistik interferensiyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ekstralingvistik omillar tahlil qilingan. Til taraqqiyoti va leksik tarkibning boyishi jarayonida tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda diniy omillarning o'rnini yoritilgan. O'zbek tilining fors-tojik, arab va rus tillari bilan ko'p asrlik aloqalari natijasida yuzaga kelgan til kontaktlari hamda ularning interferensiya jarayonlariga ta'siri misollar asosida ko'rsatib berilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy va Sadridin Ayniy asarlari materiallari orqali bilingvizm sharoitidagi leksik o'zlashishlar va interferent hodisalar tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek va tojik xalqlari folklori hamda maqollarida aks etgan umumiy lingvomadaniy xususiyatlar tahlil qilinib, interferensiyaning lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog'liqligi asoslangan. Tadqiqot natijalari til kontakti, bilingvizm va interferensiya muammolarini o'rganishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: interferensiya, ekstralingvistik omillar, til kontakti, bilingvizm, leksik o'zlashmalar, o'zbek tili, fors-tojik tili, arab tili, rus tili, lingvomadaniy aloqalar, til ta'siri, tillararo munosabatlar.

Kirish. Turli tillarning o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keladigan interferensiya hodisasi nafaqat lisoniy, balki ekstralingvistik omillar ta'sirida ham shakllanadi. Xalqlar o'rtasidagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy munosabatlar til birliklarining o'zlashishiga hamda interferent hodisalarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek tilining fors-tojik, arab va rus tillari bilan uzoq yillik aloqalari buning yaqqol misolidir. Mazkur maqolada interferensiya jarayonining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ekstralingvistik omillar hamda ularning til taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilinadi.

Ko'plab dinlarning tarqalishi asosiy kommunikatsiya vositasi bo'lgan til yordamisiz imkonsiz bo'lardi. Til va dinning o'zaro munosabati lingvistik tadqiqotlar tarixining barcha davrlarida kuzatiladi. Arablar nafaqat din, balki madaniyat, maorif, ilm, boshqaruv sohalariga oid so'zlarga ham ekstralingvistik ta'sir o'tkazgan. Bu holat tilning lingvistik sathida yaqqol o'z izini qoldirgan bo'lib, hozirgi kunda arab tilidan o'zlashgan so'zlar

olimlar tomonidan o'rganilgan va hisob-kitob natijalariga ko'ra, shevalar bilan olib qaralganda 13% dan 20 % gacha arab so'zlari ishlatilar ekan [15].

Ayrim olimlarning kuzatishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili leksikasidagi arab so'zlari miqdori o'tgan asrning 70-yillari arafasida ko'paygan. Masalan, professor M.Mirzayev «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1947–1948-yillarda chiqqan 4-sonini kuzatganda, undagi so'zlarning 18,7 foizi arab tiliga tegishli bo'lgan. 1966-yili «Toshkent oqshomi» gazetasida «Festival qo'shiqlari yangraydi» sarlavhasi bilan bosilgan maqolada 26,9 foiz arab so'zlari ishlatilgan. Hatto, texnikaga oid maqolalar matnida ham arab so'zlarining salmog'i kam bo'lmagan. Chunonchi, «Sovet O'zbekistoni» gazetasining 1967-yil 18-yanvar sonida bosilgan «Texnika remonti» sarlavhali maqola leksikasining 22 foizini arab so'zlari tashkil etgan [4].

Fors-tojik tili leksik qatlamiga mansub bo'lgan so'zlar arabcha so'zlarga nisbatan ancha chuqur o'zlashgan va o'zbek tili leksikasi bilan chatishib ketgan hayotiy zarur, ya'ni har kun, har soatda ishlatiladigan so'zlardan iboratdir.

Bu aloqalar xalqlarning ko'p asrlik umumiy urf-odatlar, madaniy aloqalari, xalq o'g'zaki ijodi va adabiyotining o'zaro ta'siri asosida rivojlanib keldi va bu albatta tilda aks etmay qolmaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ko'plab ijodkorlarimiz «shir-u shakar» asarlar yaratib, zullisonayn ijod qilganliklariga guvoh bo'lamiz. Alisher Navoiy ham forsiyda yozgan asarlarini to'plab, «Devoni Foni» tuzdi. Hatto «Muhokamat-ul lug'atayn» asarini ikki tilni bir-biriga qiyoslab, o'zbek tiling fors tilidan qolishmasligini isbotlab berib, o'zbek (turkiy) tilining nufuzini yanada oshirgan. Bu adabiy an'analar ko'p asrlar davomida mustahkam o'rnashib qoldi. Ko'p asrlik aloqa tillar o'rtasida interferensiv xatoliklar, yillar o'tishi bilan ba'zi birlari adabiy norma sifatida o'rnashib qolgan. Masalan, *gapirmoq* fe'li aynan tojik tilidagi ekvivalent (*зан задан*) ta'sirida interferensiya usulida paydo bo'lgan, turkiy tillarda aslida gapirish ma'nosi *so'zlam*, *so'ylamoq*, *aytmoq*, *demoq* tarzida bitta asliy fe'l yoki otdan yasalgan fe'l bilan ifodalanadi, so'z birikmasi bilan ifodalanmaydi. Boshqa turkiy tillarda *gapirmoq* fe'lining mavjud emasligi ham bu fikrning to'g'riligiga ishora qiladi.

зан (urmoq) fe'li tojik tilida qo'shma fe'l hosil qilish uchun ishlatiladigan fe'l shakli bo'lib, *зан зан, ҳаллоз зан, даври-даврои зан* ... (Samarqand tojik shevasi asosida) kabi birikmalarda qo'llanadi. Ma'lumki, o'zbek tilida qo'shma fe'llarni hosil qilishda ko'proq *urmoq* fe'li *oh urmoq, javlon urmoq, qayg'urmoq* kabi yarim turg'un birikmalarda qo'llanadi, xolos. Tilimizda qo'shma fe'l *qilmoq, etmoq, bo'lmoq, aylamoq* kabi yordamchi fe'llar orqali yasaladi (ammo ularning biron-tasi *gapirmoq* ma'nosidagi fe'lni yasashda ishtirok etmaydi). Demak, interferensiya hatto so'z yasash sathiga ham ta'sir qilishini ko'rish mumkin. Bundan tashqari ko'plab fors-tojik old qo'shimchalari *be-, ba-no-, dar-, ser-*... ishtiroki natijasida yangi o'zbekcha so'zlar hosil bo'lishida interferensiyaning tilning so'z yasash sathiga ta'siri namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda o'zbek va tojik tillarining lingvomadaniy kontekstdagi intensiv aloqasi haqida XIX asr oxiri va XX asr boshida yashab ijod etgan jadid adabiyoti namoyandasi Sadriddin Ayniy – yangi tojik adabiyoti asoschisining fikrlariga e'tibor qarataylik. Adib o'zbek-tojik ikkitilliligi hukm surgan adabiy muhit va ijtimoiy holatning tipik va balki so'nggi vakili bo'lib, u har ikkala tilni mukammal bilgan va o'zining ko'plab asarlarini o'zbek va tojik tillarida yozgan [4. 89-94]. Aynan quyidagi so'zlar Sadriddin Ayniy qalamiga mansub:

«Sizlarga yaxshi ma'lumki, biz o'zbeklar bilan aka-ukalarmiz. Bizlar bir daryodan suv ichamiz, aynan bir xil non yeymiz, kiyinishlarimiz ham bir, xalqlarimizning urf-odat va an'analari o'xshash. Biz hayotning zarbalarini bir xil boshimizdan o'tkazdik, va bizlar mustaqillik uchun bir xil kurashdik...»[10.7].

Taniqli adib o'zining «Qullar», «Esdaliklar», «Eski maktab», «Sudxo'ring o'limi», «Doxunda», «Odina» kabi asarlarini o'zbek tilida yozishi bilan birga, ularni tojik tiliga ham o'zi tarjima qilgan. U o'z asarida arabiy, forsiy, turkiy va ruscha leksemalardan mahorat bilan foydalangan. Binobarin, adibning qahramonlari nutqida yuqorida uning o'zi tilga olgan ijtimoiy fenomen – yashash tarzi, mentalitetning umumiyligi hamda bu holatning tilda aks etganligini ko'ramiz. S.Ayniyning «Odina» asarini tahlil qilish jarayonida, adibning har ikki tilni mukammal bilganligi sababli har bir til so'z boyligini, jozibasini namoyon qilishga harakat qilgan. Biz o'zbek tiliga fors-tojik va arab tilining ta'sirini o'rganish maqsadida ularni tahlil qilishga harakat qildik.

Fors-tojik tiliga oid umumiy leksika.

Kishilarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar: *yetim, kambag'al, nabira, cho'pon, xo'jayin, sudxo'r, do'st, dushman, farzand, mardikor...*

Tabiat bilan bog'liq so'zlar: *bahor, daryo, xarsang, gul, bulbul, chang, oltob...*

O'lchov birligini ifodalaydigan so'zlar: *gaz, toy, hafta...*

Narsa va shaxslarning belgisini bildirgan so'zlar: *pokiza, umidvor, arzon, hushyor, bemor, pushaymon, ko'rnamak, past, sho'rxok, badbo'y, qahramon, sodda, baland...*

Narsa otlari: *devor, dumba, non, xirmon, pista, surma, charx, dastgoh, ustun, chiroq, paxsa, ohak, xirmon, pul, pora...*

O'rin-joy otlari: *maydon, zinapoya, zindon, xona, go'r...*

Faoliyat-jarayon otlari: *hangoma, to'y, daromad, faryod, farmon, muzd...*

Yordamchi so'zlar: *agar, goh..., goh, dam..., dam, lekin, shoyad, xoh..., xoh...*

Arab tiliga oid umumiy leksika.

Kishilarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar: *xola, qozi, mulozim, mufti, arbob, imom, amir, hokim, jallod, tarjimon, mudir, sag'ir, asir, oshiq...*

Tabiat bilan bog'liq so'zlar: *hayvon, havo...*

Uzunlik, vaqt, o'lchov, miqdor bilan bog'liq so'zlar: *hajm, hisob, fursat, muddat, hozir, gaz, toy, hafta, pul...*

Narsa va shaxslarning belgisini bildirgan soʻzlar: *haq, musaffo, aks, mayib, foydali, hasana, harom, majburiy, tabiiy, abadiy, mushkul, maxsus...*

Narsa va buyum otlari: *imorat, soat, mol...*

Oʻrin-joy otlari: *ombor, Vatan, istirohat (bogʻi), dunyo, olam, sharq...*

Faoliyat-jarayon otlari: *meros, xizmat, qarz, tarbiya, hirs, voguea, muhokama, odat, vasiyat, omonat, ruxsat, taloq, odob, nasihat, taqvo, sir, hodisa, safar, xabar, vazifa, savol, javob, musibat, aza, hikoya, hiyla, hujum, qiyomat, arz, madaniyat, xayol, tarbiya, aql, ishq, visol, hijron, muhokama, nomus, harakat, tomosha, quvvat...*

Asarning 7 qismi tahlil qilindi va Sadridin Ayniyning oʻzbek tilida yozgan «Odina» asarida fors-tojikcha soʻzlardan 74 ta (takrorlar hisobga olinmadi), arabcha leksikadan 89 ta ishlatilganligi (takrorlar hisobga olinmadi) maʼlum boʻldi.

Vaholanki, oʻzbek tilining lugʻat tarkibida fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardan koʻproq foizni tashkil qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, agar bilingv har ikkala tilni mukammal bilsa, unda har ikkala tilda hech qanday interferensiv xatolarsiz, har bir tilning lugʻat boyligidan unumli foydalangan holda toʻliq va ravon oʻz fikrini bayon qila olishi Sadridin Ayniyning oʻzlari tarjima qilgan «Odina» asari tahlilida koʻrildi.

Tojik folklorshunoslarining fikricha, oʻzbek va tojik xalqlarining ogʻzaki ijodi nafaqat bir-biriga taʼsir oʻtkazgan, balki shu darajada oʻzaro singib ketganki, ularni qaysi tildan kelib chiqqanini baʼzan aniqlashtirish qiyinchilik tugʻdiradi va ularni folklorning barcha sathlarida kuzatish mumkin [3,4,5,7,9,10]. Samarqand tojiklari oʻzbeklar bilan aralashib yashashlari natijasida xalq ogʻzaki ijodida yor-yorlar, koʻpincha, ikki tilda kuylanadi. B. Shermuhammedovning aytishicha, Samarqand tojiklari xalq ogʻzaki ijodida shunday qoʻshiqlar, toʻrtliklar, baytlar oʻzbek tilida uchraydi va bu qoʻshiqlar oʻzbeklar ichida ham mashhur. Bundan tashqari samarqandlik tojiklar shunday qoʻshiqlarni ham bilishadiki, bularning koʻpi oʻzbek folkorida uchramaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bunday asarlarni samarqandlik tojiklar yaratishgan» [8.51].

Biz bilamizki, maqollar ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari asosida chiqargan xulosalari hisoblanadi. Maqol – xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan [14]. Tojik va oʻzbek xalqlarining asrlar davomida ayni moddiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, maʼnaviy shart-sharoitlarda lingvomadaniy aloqa va hamkorlik muhitida yashaganlari natijasi maqollarda yaqqol aks etganligini A.Y.Kalontarov qiyoslar ekan, ikki guruhga ajratib oʻrganadi: 1) toʻgʻridan toʻgʻri

ekvivalentli maqollar; 2) mazmunan mos, lekin shaklan lugʻat tarkibiga koʻra farqlanuvchi maqollar [10.28].

1. Toʻgʻridan toʻgʻri ekvivalentli maqollarning uch xili mavjud: a) lugʻat tarkibi va mazmunan butunlay mos keluvchi maqollar, masalan, *Сукут аломати ризо*[11.136].

Аввал таом, баъд аз калом[11.46].

Вақт ганимат[11.91]

Тарки одат – амри маҳол[12.409].

b) mazmuni toʻliq mos keladi, asosiy soʻzlar mos tushadi, faqat grammatik qurilishda va yordamchi soʻzlarda farqlanuvchi maqollar:

Masalan:

Tojikcha:

Дар тағи коса ним коса.

Oʻzbekcha:

Kosaning tagida nim kosa.

Tojikcha:

Чавоби аҳмақ – сукут.

Oʻzbekcha:

Ahmoqqa javob – sukut[11.46].

Tojikcha:

Баъд аз тўй нағора.

Oʻzbekcha:

Toʻydan keyin nagʻora.

c) mazmunan mos, tuzilishi va soʻzlarning mazmuni kalkalash yoʻli bilan tarjima qilganga oʻxshaydi, masalan:

Tojikcha:

Ангура хўру боғаша напурс.

Oʻzbekcha:

Uzumni ye, bogʻini surishtirma[10.86].

Tojikcha:

Баъд аз тўй нағора.

Oʻzbekcha:

Toʻydan keyin nagʻora.

Tojikcha:

Сухани рост талх мешавад.

Oʻzbekcha:

Haq soʻz– achchiq soʻz [10.90].

2. Maqollarning ikkinchi guruhiga mazmunan bir xil, lekin obrazli shakllantirish va leksik tarkibi boshqacha boʻlgan maqollar:

Tojikcha:

Дарду бадро давои бад.

O'zbekcha:

Achchiqni achchiq kesar[11.39]

Tojikcha:

Бӯи мушк пинҳон намомонад.

O'zbekcha:

Dardni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi[10.182]. va h.k.

Bu misollardan yaqqol ko'rinib turibdiki, o'zbek va tojik xalqlari asrlar osha yonmayon yashab kelganligi sababli olamning lisoniy manzarasi har ikki xalqda o'xshash bo'lib, buning sababi uzviy aloqalarda bo'lgan. Mana shu ekstralingvistik omillarning barchasi tilda o'z aksini topgan. Yuqorida ko'rsatilgan maqollar bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Qo'shni va qo'shni bo'lmagan, qardosh va qardosh bo'lmagan har xil tillarninigi o'zaro aloqasi dastlab tilning lug'at tarkibida ko'zga tashlanadi. Shu bois bir tilning lug'at tarkibida ikkinchi boshqa tilning lisoniy birliklari o'ziga xos qatlamni tashkil qiladi. Bu hol o'zbek tili leksikasidagi ko'plab tojik (fors) so'zlarining, tojik tili leksikasida shunday miqdordagi o'zbek (turk)cha so'zlarning mavjudligi va ularning real amali bilan ham isbotlanadi [1.6].

Muayyan xalq, millat tilining boshqa xalq yoxud millat tiliga ta'siri lug'aviy sathdan tashqari boshqa sathlarda ham ko'zga tashlanadi. (fonetik, morfologik, grammatik – *bu xususda ishning keyingi qismlarida batafsil to'xtalamiz*)

O'zbek va rus tillari aloqalari bu xalqlarning o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlar zaminida paydo bo'lgan. Ushbu munosabatlar Markaziy Osiyo chor Rossiyasi tarafidan bosib olinishidan keyin yanada kuchaydi. XIX asr oxiri XX asr boshidayoq Muqumiy, Behbudiy, Furqat, Avaz, Ibrat singari o'zbek ma'rifatparvarlari ijodida qo'llangan ruscha so'zlar buning yaqqol dalilidir. Professor A.K.Borovkovning ko'rsatishicha, 1905-yilgi birinchi rus inqilobidan keyinoq o'zbek tiliga rus so'zlari va rus tili orqali lotin-yunon va yevropacha so'zlar kira boshlagan [2]. Bu davrda rus va boshqa tillarga mansub so'zlar, asosan, nutqning og'zaki shakli orqali o'tgan. Ular o'sha davr imlosida ham shu shakllarini saqlagan holda yozilgan. Masalan, istakan (stakan), usto'l (stol), iskalod (sklad), inastran (inostranes), pirakuror (prokuror). Shuningdek, fransuz va italyan tillariga qarashli ko'ng'ira (kongress), qo'mita (komitet), teatru (teatr), sug'urta (straxovaniye) singari ayrim so'zlar o'zbek tiliga rus tili orqali o'tgan.

O'zbek tiliga 1905–1907-yillar birinchi rus inqilobidan keyin o'tgan so'zlar qishloq va shaharlarning turmushidagi yangi tushunchalarni ifodalagan. Chunonchi, *zavod, fabrika, gastinitsa, konka (tramvay), mashina, poyezd, vokzal, vagon, pochta, kvartira, zalog, podryad; uprava (upravleniye), bo'lis (volost), guberniya, zakaz, firma, birja, arbitraj, bank, rasxod, oborot, partiya, miting, дума* va boshq [1.31].

Rus tilidan soʻzlarning oʻzlashtirilish oqimi juda kuchaygan bir paytda ziyoli jadidlarimiz xalqning savodini oshirish, yurtida sodir boʻlayotgan yangiliklarni ommaga yetkazish maqsadida turli gazeta va jurnallar bosishni yoʻlga qoʻydilar. Xususan, Mahmudxoʻja Behbudiy Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochib, 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini nashr etishda bosh-qosh boʻladi. Rus tilining tazyiqi kuchli boʻlgan bir davrda ijod qildi va Turkistonning davlat tili toʻgʻrisidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik koʻrsatgan. M.Bebudiyning ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy maqolalarini tahlil qilar ekanmiz, oʻsha davr bilingvizmi tilda aks etgani va interferensiyani vujudga keltirganining yaqqol guvohi boʻlamiz.

Ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy maqolalardan namunalar:

1) **III Dumaning aladdul ehtirom musulmon fraksiyasi rijol mujohidlari majlislarina**

1907-yil, noyabr. Samarqanddan, «Ittifoqi muslimin» idorai Markaziyasi aʼzolaridan muftii dorulqazo Samarqandiy Mahmudxoʻja Behbudiy oʻgʻli

2) «Turkistonda islohot» maqolasi. OʻzRMDA. 1009 fond, 1-roʻyxat, 175-yigʻmajild, 25-b.

Gosudarskiy дума'ga Turkistondan vakil olmoq

Pristav va hokimlarga berilaturgan osh va suv talosh arizalari

Mamlkatimizning **zakonchishunos** boylari

Lekin har bir viloyat va **oblastniki** har rangda boʻlmay, hammasi bir **foʻrmagʻa** boʻlsa lozim

3) Turk adami markaziyat (federalist) **FIRQASINING MAROMNOMASI** (M.Behbudiy.Tanlangan asarlar. – Toshkent «Akademnashr», 2018)

Pospurt usuli bitirilub, (158-b)

Oʻz ishchilarini **istroxovayt** (straxovaniye – sotsial sugʻurta) qildirmoq (160-b)

Samarqand **uyezdigʻa** tobe **saʼd syezd narodniy sudʻ**yalari ushbu **povestkani** va usulni amaligʻa kirgizub, sharʼiy bilub, istehson etdilar va bir muqtaziyi sharʼiy va amri hukkom omildurlar. (169-b)

Bas, ul baland darajalik Turkiston **general-gubernatorini** mazkur farmoyishlari va janob Samarqand **oblastini voyenniy gubernatorini povestka** va gʻoibona hukm toʻgʻrisigʻa koʻrsatgan qoidalari (167-b.)

3) Saylangan mansabdor shaxslarning tasdiq qilinishi haqida (M.Behbudiy.Tanlangan asarlar. -Toshkent «Akademnashr», 2018).

4) Samarqand shahrini(ng) birinchi Hazrati Shohizinda dahasigʻa saylangan janob **lichnoy pochetnoy grajdaning** qozi Mulla Niyozmuhammad Mullo soʻfi oʻgʻli qozilik mansabigʻa, domlo muhtaram Mullo Abdulhafiz oʻgʻli **kandidatlikgʻa** janob baland darajalik Samarkand **oblastini voyenniy gubernatori** marhamatlari ila mustahkam boʻldilar. (197-b)

Mir bo'lustnoylarimiz (volostnoy), *istarshina* va oqsoqollarimiz quzzoti zamoniya bir karra fikr etsalar (199-b)

5) Samarqandda usuli jadid maktabini imtihoni xususida (M.Behbudiy.Tanlangan asarlar. Toshkent «Akademnashr» 2018)

Maktabimizg'a rusiy taraqqiyparvaridin hozirgi Ho'jand hokimi janob Likoshin to'ra va Samarqand *oblastnoy pravleniyasi* ma'mur va *chinovnik*laridan janob Vyatkin to'ra (263-b)

6) *Gosudarstvennoy дума* vakillari xususida (M.Behbudiy.Tanlangan asarlar. Toshkent «Akademnashr» 2018)

Janob Samarqand qozisi *lichnoy potomsvenniyy grajdaning* mulla Niyoz Muxammad Husainboy so'fi o'g'li (269-b)

Musulmon *chlenlari* (269-b)

Obrazovanniyy kishilar(269-b)

*Statistiq*larina boqmoq (273-b)

7) Peterburg Jome' sharifi (M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent «Akademnashr» 2018)

Sirdaryo oblastini Petroaleksandrovskiy *po'chtaxona* vositasi ila *upravleniya* Tadjandskiydan yetti so'm xayr berib binosi uchun manim noming'a keldi (305-b)

Bu davrda rus tilidan o'zlashgan so'zlar avval og'zaki nutq orqali kirib kelgan, chunki ular o'zbeklar nutqida qanday talaffuz qilinsa, xuddi shu holatda yozilganiga guvoh bo'ldik. Yuqorida ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ba'zi birlari lug'at tarkibida mustahkam o'rin egallab, hozirgi kunga qadar ishlatilib kelinmoqda.

Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar, albatta, tilda o'z izini qoldiradi, yuqorida ko'rib o'tilgan arab, fors-tojik, rus tillari aloqasi avvaliga interferensiv xatolik sifatida qaralsa, vaqt o'tishi bilan ba'zi leksemalar lug'at tarkibidan mustahkam o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бердиалиев А., Зокиров М.Т. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. Олий ўқув юртлари филология факультети талабалари учун қўлланма. Фарғона, 2018, – В. 6.

2. Боровков А.К. Изменения в лексике узбекского литературного языка и новый алфавит // Изв. Уз ФАН ССР, №7.

3. Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Яна ўша. An`ana va marosim – Toshkent, Fan, 2009.

4. Мирзаев М. Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида //Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-том. –Тошкент, 1961.
5. Ражабов Р. Фольклор таджиков Шахрисабза и Китаба Кашкадарьинской области Республики Узбекистан: Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Душанбе, 2007;
6. Самадов А. Мавқеи равобити адабӣ дар эҷодиёти даҳанакии халқ ва адабиёти хаттии асрҳои X-XIV / Пайвандҳои дӯстӣ ва адабӣ (Равобити адабии халқҳои тоҷик ва ўзбек дар оинаи таърих). –Тошканд: Муҳаррир, 2012. – Б. 14-32;
7. Шерназаров А.А. Қашқадарё тожик маросим фольклорида икки тиллилик ва адабий таъсир: филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореферати. – Самарқанд, 2018.–Б.49;
8. Шермухаммедов Б. Таронаҳои Самарқанд. Душанбе, Нашр. “Дониш”, 1966.– Б.9. Ҳана қаранг: Хонхуҷаева А.С. Этнографическая лексика таджикского языка по свадебным и траурным церемониям (на материале Самаркандского диалекта): автореф. дисс. докт. философии по филологии. – Самарканд, 2019. – 51 с.
9. Шодиева С. Ўзбек фольклорини ареал тадқиқ этишнинг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 2. – Б. 39-42. Ҳана қаранг: Р.Рачабӣ. Намунае чанд аз фольклори тоҷикони Шахрисабзу Китоб. – Душанбе: “Пажуҳишқадаи ардумшиносӣ”, 2001; Қодиров Р. Назаре ба фольклори тоҷикони вилояти Қашқадарё. – Душанбе: Эҷод, 2005;
10. Калонтаров Я.И. “Таджикские пословицы и поговорки в сравнении с узбекскими. – Душанбе, 1969, –Б. 7.
11. Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент, 1965. –Б. 39.
12. Узбекско-русский словарь. –М., 1959. –Б. 409
13. Shimada Shizuo, Tosheva Sharifa (eds.). Şadr al Din Ayni. Bukhara inqilabining tarixi. Central Eurasian Research Series. No 4. The University of Tokyo, Dept. of Islamic Area Studies, 2009. PP. 9-287;
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol>
15. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-al-v19.html>